



ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION METODLAR

Rahmonjonova Madinabonu Barat qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU O'zbek tili va adabiyot fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning ahamiyati, ta'lim sifatini oshirishdagi roli hamda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari ilmiy nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Innovatsion metodlar orqali ta'lim jarayonining interaktivligi, samaradorligi va zamon talablariga moslashuvchanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsion metodlar, zamonaviy ta'lim, interaktivlik, bilim va ko'nikma.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim jarayoni tobora yangilanib ,avvalgidan-da zamonaviy ,ijodkorlikka asoslangan va innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda .Jamiyatning rivoji ,iqtisodiy o'sish va intellektual salohiyat avvalo ta'lim tizimiga bog'liq bo'lganligi uchun ,o'quv jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish zamon talabi sifatida qaraladi.Innovatsion metodlar o'quvchi va talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi ,amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi .Zamonaviy ta'limning eng asosiy talabi -o'quvchini tayyor bilim bilan emas ,balki mustaqil izlanish ,tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatishdir .Shu bois ,innovatsion metodlar orasida interfaol usullar alohida o'rin tutadi ."Aqliy hujum ","Klaster","Baliq skeleti","Insert","Debat ",kabi metodlar dars jarayonini jonlantirib ,o'quvchilarning faolligini oshiradi.Bu usullar orqali talaba nafaqat yangi bilim oladi ,o'z fikrini asoslash ,himoya qilish ,boshqalar fikrini tinglash ko'nikmasini ham egallaydi.So'nggi yillarda ta'limda keng qo'llanilayotgan yana bir yo'nalish -axborot texnologiyalariga asoslangan metodlardir .Elektron ta'lim platformalari ,virtual laboratoriyalar ,onlayn darslar ,multemediali taqdimotlar o'quv jarayonini kenagaytirib ,uni yanada ko'p qirrali qiladi .Masalan,interaktiv doskalar ,vediodarslar orqali o'quvchi mavzuni vizual tarzda osonroq tushunadi.Bu esa o'zlashtirish darajasini sezilarli tarzda oshiradi.Shuningdek so'nggi yillarda dunyo ta'lim tizimida keng ommalashgan STEAM-ta'lim (Science ,Technology,Engineering ,Art,Mathematics)metodi O'zbekistonda ham faol joriy etilmoqda .Bu yondashuv talabalarda ilm-fan ,texnologiya muhandislik va sa'nat yo'nalishlarida integrallashgan tasavvur yaratadi .Yaratish ,sinab ko'rish ,xatodan to'g'ri xulosa chiqarish kabi ko'nikmalar esa kelajak kasblariga tayyorlaydi.Innovatsion metodlarning



samarali bo'lishi uchun o'qituvchi ham muntazam izlanishda bo'lishi dars jarayonida unchalik an'anaviy bo'lmagan faol pedagogik usullardan foydalanishi zarur. Xususan, loyiha asosida o'qitish ,kooperativ ta'lim kabi usullar talabaning dars jarayonida faol bo'lishini ta'minlaydi. Bu metodlar orqali o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki ularni amaliyotda qo'llashni ham o'rganadi. Aynan XXI asrning boshlaridan boshlab dunyo ta'lim tizimi tubdan o'zgarib boshladi. Ilm -fan va texnologiyalarning keskin rivojlanishi ,ijtimoiy -iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi global axborot oqimlarining ortishi ta'lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab qildi. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi -o'quvchiga shunchaki ma'lumot berish emas ,balki ularda ijodkorlik ,tanqidiy fikrlash ,mustaqil qaror qabul qilish ,tadqiqot olib borish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdir.

O'zbekistonning zamonaviy ta'lim tizimi an'anaviy yondashuvlardan farq qiladi. Ta'lim jarayoni o'quvchining qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etadi. Bu esa bilimning individualizatsiyalashuvi ,o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga mos muhit yaratishni ta'minlaydi. Shu bilan birga ,ta'lim jarayoni o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan .Innovatsion metodlar o'qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular faqat bilim uzatuvchi emas ,balki yo'naltiruvchi ,qo'llab -quvvatlovchi va motivator sifatida faoliyat yuritadilar .O'qituvchilar o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash ,rag'batlantirish va samarali bilim berish imkoniyatiga ega bo'ladilar .Shu bilan birga ,pedagoglarning malaka oshirish va doimiy professional rivojlanishi ta'lim sifatini yanada yuqori darajaga ko'taradi. O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion metodlar nafaqat pedagogik jarayonni samarali qiladi ,balki o'quvchilarning mustaqil bilim olish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv darslar, loyiha asosidagi faoliyat va texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda bilimni tahlil qilish va uni amalda qo'llash qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga ,bu metodlar o'quvchilarni hayotga tayyorlash ,ularni zamonaviy jamiyat talablari bilan tanishtirish imkonini beradi.

Globalizatsiya jarayonlari O'zbekiston ta'lim tizimiga ham ta'sir qilmoqda. Ta'lim jarayoni o'quvchilarga nafaqat milliy ,balki global bilimlar tizimini yetkazish ,ularni zamonaviy dunyo talablariga tayyorlashga yo'naltirilgan. Innovatsion metodlar yordamida axborot manbalaridan foydalanish ,raqamli texnologiyalarni qo'llash va interektiv muhit yaratish imkoniyati kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda ,zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish -bu shunchaki yangilik kiritish emas, balki ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, kelajak avlodni zamon talablari darajasida



tarbiyalash demakdir .Ta'lim tizimi qanchalik innovatsion bo'lsa ,jamiyatning intellektual salohiyati ham shunchalik yuksaldi.Shuning uchun o'qituvchi ham,ta'lim muassasasi ham doimiy izlanishda bo'lishi ,eng zamonaviy pedagogik metodlarni amaliyotga tatbiq etib borishi bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Xususan zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish bugungi kunda nafaqat didaktik ehtiyoj,balki ta'lim tizimining raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. O'zbekistonning 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ,shuningdek , "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish "va "Raqamli O'zbekiston -2030 " dasturlarida ta'limga ilg'or texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib ,bu jarayon ushbu mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.Shu sababli , innovatsion metodlarni muntazam ravishda takomillashtirish ,pedagoglarning malakasini oshirish ,raqamli vositalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish O'zbekiston ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.Innovatsion metodlar ta'limning bugungi kundagi rivojlanish yo'lini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri ekanligi bilan ilmiy -amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, A.(2020).Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik ahamiyati.Toshkent :Ta'lim nashriyoti .
2. Karimov, M.(2019).Innovatsion pedagogik metodlar va o'quv jarayonini samarali tashkil etish .Toshkent :Fan va ta'lim .
6. Islomov, S.(2021).Raqamli texnologiyalar va ta'lim jarayonida ularning qo'llanilishi .Toshkent :Axborot -resurs markazi
7. Rashidov, N.(2018).Pedagogik innovatsiyalar :nazariya va amaliyot .Toshkent:Ta'lim akademiyasi nashriyoti .
8. Sultonov, R.(2022).Zamonaviy o'quv jarayonida interaktiv metodlar .Toshkent :O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.